



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 460 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi .....	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv .....	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoira Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati .....	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish .....	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari .....	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri .....	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality .....	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari .....	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni .....	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish .....	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari .....	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida) .....	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish .....	111
<i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili .....	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatlarini (Learning outcomes) asosida .....	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari .....	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish .....	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi .....	137
<i>Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi .....	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdorovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli .....	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni .....	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni .....	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ .....	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish .....	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari .....	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati .....	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi .....	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari .....	190
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990-yillar) .....	195
<i>Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalari .....	199
<i>Qo'ziyeva Shahnoza Muhammadsoli qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishda mumtoz musiqaning o'rni va ahamiyati ..... 202 <a href="#">Baymanova Feruza Abralovna</a>	202
Ommaviy jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik asoslari ..... 207 <a href="#">Xayitova Ulfatoy Tursunovna</a>	207	
Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ..... 211 <a href="#">Turg'unboev Sirojiddin Faxriddinovich</a>	211	
Muhandislik ta'limida Bernulli va Puasson taqsimotlarini texnologik jarayonlar misolida o'qitish metodikasi... 216 <a href="#">Qo'ziboyeva Nozima Yoqubjon qizi, Maxmanazarov Sardor Toirjon o'g'li, Saydullayev Asadbek Xayrullo o'g'li</a>	216	
Психолого-педагогические основы обучения теме “производная” в курсе алгебры и начал анализа президентской школы ..... 225 <a href="#">Шахноза Холмуродова Зоир кизи</a>	225	
O'qish savodxonligi darslarida Bloom taksonomiyasi va 4K kompetensiyalarining integrativ modeli ..... 234 <a href="#">Farsaxonova Mastura Jalol qizi</a>	234	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini baholash mezonlari va monitoring tizimini takomillashtirish: indikatorlar asosidagi boshqaruv modeli ..... 241 <a href="#">Jo'rayeva Dilrabo Kamoliddin qizi</a>	241	
Maxsus mashqlar yordamida start tezligini oshirish metodikasi ..... 244 <a href="#">Sitara Elova Axmatqulovna, Panjiyeva Gulzoda Eshdaviyat qizi</a>	244	
Amudaryo foreli (Salmo trutta oxianus) O'zbekiston hududida tarqalishi va ekologiya ta'siri..... 248 <a href="#">Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Xolmo'minova Sevinch Sirojiddinova, Qurbonazarova Marjona Zokirovna</a>	248	
Suv va quruqlik muhitiga moslashgan amfibiyalarda adaptatsiya xususiyati ..... 251 <a href="#">Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Axmamatova Feruza Shamsiddin qizi, Qo'ldoshova Ruxshona Navro'z qizi</a>	251	
O'zbekistonda tarqalgan kaptarsimonlar xilma-xilligi, ularni tarqalishi, biologik xususiyatlari va amaliy ahamiyati ..... 255 <a href="#">Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Xolmo'minova Jasmina Baxtiyor qizi, Saidova Dilnoza Rustamovna</a>	255	
Surxondaryo viloyatidagi qo'lqanotlilar turlarining morfologik tasnifi va hududiy farqlari ..... 259 <a href="#">Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Yarashova Sarvara Islomovna, Bahromova Shahzoda Abduqodirovna</a>	259	
Игровые технологии как средство активизации коммуникативной деятельности учащихся на занятиях по русскому языку ..... 267 <a href="#">Халикова Гульбахор Исановна</a>	267	
Yoshlarni pedagogik kasbga yo'naltirish ishlarini o'rganishning konseptual va metodologik asoslari ..... 270 <a href="#">Matkarimova Muxabbat Abuovna</a>	270	
O'qish savodxonligini baholovchi topshiriqlar turlari ..... 277 <a href="#">Rasulova Mushtariybonu</a>	277	
Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlaridagi bolalarda tashqi nafas olish tizimi xususiyatlari ..... 281 <a href="#">Orazbaeva Navbaxor Mratbaevna</a>	281	
“Kompyuter tarmoqlari” fanini o'qitishda dasturiy-didaktik vositalardan foydalanish ..... 285 <a href="#">Muqimov Shahzodbek Ixtiyor o'g'li</a>	285	
Yangi O'zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari (Qashqadaryo viloyati misolida)..... 288 <a href="#">Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, Safarova Sevara Saloxiddinovna</a>	288	
Raqamli ta'lim strategiyalaridan foydalanib o'qish samaradorligini oshirish ..... 294 <a href="#">Narzullayeva Gulzira Xayrullo qizi, Abdusottarova Farog'at Olimjon qizi</a>	294	
Oliy ta'limda “Zoologiya” kursini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (“umurtqali hayvonlar” misolida)..... 299 <a href="#">Xonnazarova Mamlakat To'lqinovna</a>	299	
Oliy ta'lim muassasalarida ommaviy sportni rivojlantirish strategiyalari ..... 303 <a href="#">Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li</a>	303	
Accommodating a Teenage English Learner With Tourette-Related Stammering in Uzbekistan State Multilevel Test Preparation: A Single-Case Study ..... 307 <a href="#">Yulduz Sultanova</a>	307	
Yengil atletikada to'siqlar osha yugurish texnikasini takomillashtirish va o'rgatish uslubiyati ..... 313 <a href="#">Chariyev Ulug'bek Abdujabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich</a>	313	



The Interaction of Language and Culture in Intercultural Conflict Communication .....	317
<b>Gulnoza Khushnazarova</b>	
O'smir shaxsida o'zini o'zi tushunish psixologik muammo sifatida.....	321
<b>Mahmudov Abdurasul</b>	
O'quvchilar nutqida milliy-madaniy leksik birliklarni qo'llashga o'rgatishda semantikashtirish .....	325
<b>Tursunova Javhar Bakir qizi</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich ta'limda matematik madaniyatni shakllantirish: Qori Niyoziy merosi asosida.....	329
<b>Axmedova Nargiza Toychibekovna</b>	
A2 darajadagi o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda adaptiv yondashuvning roli .....	333
<b>Nezametov Zuxra Axmadovna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kasbga ijodiy munosabatni tarbiyalashning nazariy asoslari.....	336
<b>Axmatov Ibrohimjon Furqat o'g'li</b>	
Voyaga yetmaganlar profilaktikasida maktab, oila va mahalla hamkorligining zamonaviy holati va diagnostikasi .....	340
<b>Japparbergenova Indira Bayramovna</b>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishni pedagogik tizimini takomillashtirish .....	344
<b>Amankosova Dinara Gabitovna</b>	
Innovatsion usullar vositasida maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqini rivojlantirish.....	348
<b>Mamatova Aziza Bo'riboyevna</b>	
Dzyudoning olimpiya o'yinlaridagi o'rni va ahamiyati .....	353
<b>Jaxongir O'razbayev Temur o'g'li</b>	
Umumta'lim maktab o'quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga integratsiyalashgan harbiy tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari.....	356
<b>A'zamov Inom Salimjonovich</b>	
The Role of Digital Platforms in Developing Students' Independent Learning Competency.....	360
<b>Jo'rayeva Zamira Ishmuminovna, Uraqova Shaxlo Turdiyevna</b>	
Shaxsiy ta'lim trayektoriyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati .....	365
<b>Toshpo'latov Olim Panjiyevich</b>	
"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat markazlarining ta'lim jarayonlarini tashkil etish .....	370
<b>Bektemirova Asilabonu Akmal qizi</b>	
Kreativ ta'lim texnologiyalari asosida talabalarda innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish .....	374
<b>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</b>	
Bolalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va yosh xususiyatlari .....	378
<b>Erkinboyev Muhammadqodir Nodirbek o'g'li</b>	
Tasviriy san'at darslarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.....	383
<b>Xushvaqtov Abror Doniyor o'g'li</b>	
Raqamli ta'lim muhitida zamonaviy o'qitish metodlari va interaktiv texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	387
<b>Murodova Dilafro'z Matmurod qizi, Sattarova Bibijon Muzaffar qizi, Bekmurodova Muhayyo Uralbayevna</b>	
Kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish borasidagi milliy va xorijiy tajribalar .....	391
<b>Aralova Maxsuma Abdurahmonovna</b>	
Yuqori sinf o'quvchilariga chet til o'qitish va o'rgatishda motivatsiyaning o'rni xususida.....	396
<b>Atadjanova Shaxnoz Abbasovna, Ismoilova Feruza Salimjon qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda innovatsion metodlar .....	400
<b>Axmedova Fayziniso Otabek qizi</b>	
Bo'lajak pedagoglarning uzluksiz amaliy faoliyatida professional salohiyatini rivojlantirish yo'llari .....	403
<b>Habibullayeva Muxlisaxon Yorqinjon qizi</b>	

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining PR kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....	406
<b>J. B. Jumabayev</b>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	412
<b>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</b>	
Biologiya ta'lim jarayonida ilg'or hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash.....	416
<b>Mo'minov Dilshod Yaxshiboy o'g'li</b>	
Oliy ta'limda masofaviy ta'limning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	420
<b>Mutalibova Muqaddasxon Abdunabi qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli platformalar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish .....	423
<b>Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Saminjonova Sevaraxon Axmadjon qizi, Abdihakimova Muqaddas Fahridinova, Matsapayeva Nigora Satbay qizi</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining etnopedagogik kompetentligini shakllantirishda milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'atining didaktik imkoniyatlari .....	428
<b>Pardayeva Gulchexra Safarovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	432
<b>Qipchaqova Sevinchxon Farxodjon qizi</b>	
Maktabgacha ta'lim boshqaruvida ERP tizimlarini integratsiyalashning proaktiv modeli.....	436
<b>Raxmatillayev Oyatillo Zikrillayevich</b>	
Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish va loyihalashtirish.....	439
<b>Sadikova Shoista Akbarovna, Yangiboyeva Salomat Samandarovna, Yangiboyeva Sevinch Samandarovna</b>	
Milliy hunarmandchilik buyumlarini yasash orqali o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish .....	442
<b>Xayitov Jonibek Xolboboyevich, Nabijonova Nilufar Nabijon qizi</b>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	446
<b>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</b>	
Сравнительно-типологический анализ юмора и гуманизма в творчестве Гафура Гуляма и Марка Твена.....	451
<b>Абдумунинова Махлиё</b>	
Особенности фонетико-фонематической речи (качественные и количественные) у младших школьников с речевыми расстройствами.....	453
<b>Заирова Н. Б.</b>	



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Qipchaqova Sevinchxon Farxodjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari, zamonaviy yondashuvlari hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samaradorligi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, bolalarning bilishga oid faoliyatlarini rivojlantirishda rivojlantiruvchi muhit va tarbiyachining pedagogik mahorati muhim omil ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** bilish kompetensiyasi, maktabgacha ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, integratsiyalashgan faoliyat, innovatsion texnologiyalar, tafakkur, rivojlantiruvchi muhit.

**Abstract:** This article discusses the pedagogical foundations of developing cognitive competence in preschool children, modern approaches, and their significance in the educational process. The article scientifically substantiates the effectiveness of the educational process organized on the basis of a competency-based approach. It also emphasizes that a developmental environment and the professional skills of educators are important factors in enhancing children's cognitive activities.

**Key words:** cognitive competence, preschool education, competency-based approach, integrated activities, innovative technologies, thinking, developmental environment.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются педагогические основы развития познавательной компетентности детей дошкольного возраста, современные подходы и их значение в образовательном процессе. В статье научно обоснована эффективность образовательного процесса, организованного на основе компетентностного подхода. Также показано, что важным фактором развития познавательной деятельности детей являются развивающая образовательная среда и педагогическое мастерство воспитателя.

**Ключевые слова:** познавательная компетентность, дошкольное образование, компетентностный подход, интегрированная деятельность, инновационные технологии, мышление, развивающая среда.

### KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va bolalarni har tomonlama rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda <sup>[1]</sup>.

Bilish – insonning atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni anglash, o'rganish va tushunish jarayonidir. Kompetensiya esa shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Bilish kompetensiyasi bolaning kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Kompetensiya – shaxsning ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarni amalda qo'llay olish qobiliyatidir. Ya'ni kompetensiya faqat bilimga ega bo'lish emas, balki o'sha bilimni hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olishni ham anglatadi. Maktabgacha ta'limda kompetensiya bolaning mustaqil fikrlashi, muammoni hal qilishi, muloqot qilishi hamda bilimlarini amalda qo'llashi orqali shakllanadi.

Bilish kompetensiyasi – bolaning atrof-muhitni anglash, bilim olish, kuzatish, tahlil qilish, fikrlash va o'rgangan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatidir. Maktabgacha yosh davri bolaning intellektual rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, aynan shu davrda bolaning bilishga bo'lgan qiziqishi faol shakllanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.



“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarning 5 ta yirik sohasi va 15 ta kichik sohasi belgilangan bo‘lib, ushbu sohalar “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” asosida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan. Shuningdek, mazkur 5 ta yirik soha asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 5 ta rivojlanish markazi tashkil etilgan. Bilish jarayonining rivojlanish sohasi uchinchi yirik soha hisoblanib, u quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

- intellektual-bilish malakalari;
- elementar matematik malakalar;
- tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturiga ko‘ra, 6-7 yoshdagi bola “Bilish jarayonlarini rivojlantirish” sohasi bo‘yicha ta‘lim-tarbiya jarayoni yakunida bilish jarayonlariga nisbatan faol qiziqishni namoyon etadi. Bola ta‘limiy va hayotiy faoliyatda zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni mustaqil izlab topa oladi hamda ulardan foydalanadi. Shuningdek, predmetlar, hodisalar va voqealar o‘rtasidagi oddiy bog‘lanishlarni anglaydi va ularni yaxlit jarayon sifatida qabul qiladi <sup>[6]</sup>.

Bundan tashqari, bola son va sanoq haqida tasavvurga ega bo‘ladi, elementar matematik hisob-kitoblarni bajaradi hamda fazo, shakl va vaqt tushunchalarida yo‘nalishni aniqlay oladi. Asosiy grafik belgilarni bilishi, axborot va raqamli savodxonlikning dastlabki ko‘nikmalarini egallashi ham mazkur sohaning muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Bola atrof-muhitdagi obyekt va hodisalarni kuzatadi, tadqiq qiladi hamda tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilishga nisbatan ehtiyotkorona va mas‘uliyatli munosabatni namoyon etadi <sup>[6]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Lev Vygotsky bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqotning muhim o‘rin tutishini ta‘kidlagan <sup>[2]</sup>. Olimning fikricha, bolaning bilish faoliyati kattalar bilan hamkorlik jarayonida shakllanadi.

Jean Piaget esa bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini ilmiy asoslab bergan <sup>[3]</sup>. Uning nazariyasiga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda obrazli tafakkur ustunlik qiladi va ular amaliy faoliyat orqali bilimlarni tezroq o‘zlashtiradilar.

Mahalliy olimlardan F.R. Qodirova maktabgacha pedagogika sohasida bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasini yoritgan <sup>[4]</sup>.

O.U. Hasanboyeva esa kompetensiyaviy yondashuv asosida ta‘lim jarayonini tashkil etishning nazariy jihatlarini tahlil qilgan <sup>[5]</sup>. Mazkur tadqiqotning o‘ziga xosligi shundaki, unda bilish kompetensiyasini rivojlantirishda o‘yin faoliyati, integratsiyalashgan ta‘lim hamda innovatsion texnologiyalarning o‘zaro bog‘liqligi kompleks tarzda tahlil etilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, qiyosiy-tahliliy yondashuv, suhbat, umumlashtirish hamda ilmiy-metodik manbalarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Kuzatish pedagogik faoliyatdagi asosiy metodlardan biri hisoblanib, maktabgacha ta‘lim tashkilotida tarbiyachilar bolalarni kun davomida kuzatadilar. Kuzatish qisqa va uzoq muddatli bo‘ladi. Bunda bolalarning kunlik faoliyati yoki mashg‘ulotlardagi faolligi kuzatilsa, qisqa muddatli kuzatish hisoblanadi, rivojlanish xaritasini to‘ldirish maqsadida har 3 oyda 1 marta tahlil qilinib belgilanadigan kuzatish esa uzoq muddatli kuzatishga misol bo‘ladi. Shuningdek, qiyosiy-tahliliy yondashuv ham bir xil yosh guruhidagi ikkita guruhning rivojlanish ko‘rsatkichlarini solishtirishda samarali hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi mashg‘ulotlar kuzatilib, bolalarning bilish faoliyatiga ta‘sir etuvchi pedagogik omillar tahlil qilindi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘lim faoliyatining samaradorligi qiyosiy tarzda o‘rganildi. Tadqiqot davomida innovatsion pedagogik texnologiyalarning bolalar tafakkuriga ta‘siri ham aniqlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish kompetensiyasini rivojlantirishda o‘yin faoliyati alohida ahamiyatga ega. O‘yin bolaning yetakchi faoliyati bo‘lib, u orqali bola atrofda olamni anglaydi va ijtimoiy tajribani egallaydi. Didaktik o‘yinlar bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, kuzatuvchanlik hamda mustaqil fikrlash kabi sifatlarini rivojlantiradi. Masalan, “Ortiqchasini top”, “Nima o‘zgardi?”, “Kim tez topadi?”, “Soyasidan top” kabi o‘yinlar bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rolli-syujetli o‘yinlar esa bolalarda tasavvur va ijodkorlikni shakllantiradi. Integratsiyalashgan faoliyatlar ham bolalarning bilish kompe-

tensiyasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, "Tabiat" mavzusidagi mashg'ulot davomida bola daraxtlarni kuzatadi, barglarni sanaydi, ranglarini farqlaydi, ular haqida hikoya tuzadi va rasm chizadi. Natijada matematika, nutq rivoji, tasviriy faoliyat hamda bilish jarayonlari o'zaro integratsiyalashadi. Tadqiqotlar davomida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirishi aniqlandi. Multimedia vositalari, interfaol taqdimotlar va STEAM texnologiyalari bolalarning mustaqil izlanishi, muammoli vaziyatlarni hal qilishi hamda amaliy fikrlashining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Masalan, suvning bug'lanishi, magnit xususiyatlari va ranglarning aralashuvi kabi oddiy tajribalar bolalarda ilmiy tafakkurning dastlabki ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi: rivojlantiruvchi muhitning yetarli darajada tashkil etilmagani, ayrim tarbiyachilarning innovatsion metodlardan foydalanish ko'nikmalarining pastligi hamda ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi. Tahlillar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interfaol metodlardan foydalanish va rivojlantiruvchi muhitni boyitish zarurligi aniqlandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda bilish kompetensiyasini rivojlantirish uzluksiz va bosqichma-bosqich olib boriladigan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda tarbiyachining kasbiy mahorati, ta'limiy muhitning to'g'ri yo'lga qo'yilgani hamda bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bilish kompetensiyasi bolaning atrof-muhitni anglashga bo'lgan qiziqishi, kuzatish, solishtirish, tahlil qilish, mustaqil fikrlash, muammoni hal etish hamda o'z fikrini erkin ifoda eta olish ko'nikmalarini qamrab oladi. Shu sababli mazkur kompetensiyani rivojlantirish kichik guruh yoshidan boshlab tizimli ravishda amalga oshirilishi zarur.

Bilish kompetensiyasining rivojlanishida maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etilgan rivojlantirish markazlari alohida o'rin tutadi. Tarbiyachi markazlarni bolalarning yoshiga mos, xavfsiz, qiziqarli va ta'limiy jihatdan boy materiallar bilan jihozlashi lozim. Qurish-yasash, matematika, til va nutq, san'at, ilm-fan hamda tabiat markazlari orqali bolalarda kuzatuvchanlik, tafakkur, tajriba qilish, mustaqil izlanish hamda ijodkorlik rivojlanadi. Ayniqsa, bolaning mustaqil faoliyat olib borishi uchun erkin va qulay muhit yaratish uning bilishga bo'lgan ichki ehtiyojini kuchaytiradi. Kun tartibiga rioya qilish ham bolalarning bilish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rejalashtirilgan faoliyatlarning izchil tashkil etilishi bolada tartib-intizom, vaqtni his qilish va faoliyatga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, sog'lom va xavfsiz muhit yaratish bolaning ruhiy hamda jismoniy holatini barqarorlashtirib, uning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi. Bola o'zini xavfsiz his qilgan muhitdagina erkin fikrlaydi, savol beradi va yangi bilimlarni qabul qilishga intiladi.

Maktabgacha ta'limdagi besh rivojlantirish sohasi – jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi hamda ijodiy rivojlanish sohalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu sohalarning barchasi bolaning bilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, nutq rivoji bolaning fikrlashini boyitsa, ijodiy faoliyat tasavvur va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini shakllantiradi. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish esa bolaning jamoada ishlash, fikr almashish va muloqot qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Bolalarning rivojlanish xaritalarini yil davomida uch marotaba kuzatish va baholab borish tarbiyachidan katta mas'uliyat talab qiladi. Kuzatuvlar xolis, aniq va ishonchli ma'lumotlarga asoslangan holda olib borilishi kerak. Bu orqali bolaning rivojlanish darajasi, qiziqishlari, kuchli va sust tomonlari aniqlanadi. Olingan natijalar asosida yakka tartibdagi rivojlantirish rejaları tuziladi va bolaning individual ehtiyojlariga mos pedagogik yondashuv amalga oshiriladi. Shuningdek, rivojlanishdan ortda qolayotgan yoki bilimlarni sekin o'zlashtirayotgan bolalarni erta aniqlash muhim vazifalardan biridir. Bunday holatda tarbiyachi ota-onalar, psixolog, metodist va boshqa pedagoglar bilan hamkorlikda ish olib borishi zarur.

Hamkorlikdagi faoliyat bolaning muammolarini o'z vaqtida bartaraf etish va uning rivojlanishiga ko'maklashishda samarali natija beradi. Bilish jarayonining rivojlanishi qisqa muddatda shakllanadigan holat emas. Bu uzoq davom etadigan, izchil va uzluksiz pedagogik ta'sir natijasida rivojlanadigan kompetensiyadir. Shu sababli u aynan "kompetensiya" deb nomlanadi va tayyorlov guruhi yakuniga, ya'ni 6–7 yosh davriga kelib yetarli darajada shakllangan bo'lishi lozim. Ushbu davrgacha bola kichik, o'rta, katta va tayyorlov guruhlarida yoshiga mos yillik reja asosida ta'lim-tarbiya oladi. Har bir bosqichda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar keyingi rivojlanish pog'onasi uchun asos vazifasini bajaradi. Natijada bola maktab ta'limiga intellektual, ijtimoiy va psixologik jihatdan tayyor bo'lib shakllanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish kompetensiyasini rivojlantirish ularning kelajakdagi ta'lim faoliyati, intellektual salohiyati hamda shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Bilish kompetensiyasi orqali bola atrof-muhitni anglaydi, voqea-hodisalarni kuzatadi, tahlil qiladi, mustaqil fikr yuritadi va o'z bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llashni o'rganadi.

Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni bolalarda izlanish, tadqiq qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda ijodiy yondashuv ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat



qiladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning yoshi, qiziqishlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bilish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida tarbiyachining pedagogik mahorati, rivojlantiruvchi muhitning to'g'ri tashkil etilishi, ota-onalar bilan hamkorlik hamda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki bolaning bilishga bo'lgan qiziqishi aynan qulay, xavfsiz va rag'batlantiruvchi muhitda yanada faollashadi. Shuningdek, ta'limiy faoliyatlarni integratsiyalashgan holda tashkil etish bolalarning turli sohalar bo'yicha bilimlarini o'zaro bog'lash, tafakkurini kengaytirish va mustaqil xulosa chiqarishiga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

#### **Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni yanada boyitish**

Rivojlantirish markazlarini zamonaviy didaktik materiallar, konstruktorlar, tajriba o'tkazish vositalari, interaktiv o'yinlar va bolalarning yoshiga mos ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlash lozim. Muhit bolani mustaqil izlanishga, savol berishga va yangi bilimlarni o'rganishga undashi kerak. Ayniqsa, ilm-fan va tabiat markazlari faoliyatini kuchaytirish orqali bolalarda kuzatuvchanlik hamda tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

#### **Tarbiyachilar uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'yicha seminar-treninglar tashkil etish**

Zamonaviy ta'lim metodlarini amaliyotga joriy etish uchun pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish muhimdir. Seminar-treninglarda interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, STEAM yondashuvi hamda AKT vositalaridan foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi tavsiya etiladi. Bu tarbiyachilarning ijodkorligini oshirib, ta'lim sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

#### **Integratsiyalashgan faoliyatlar sonini ko'paytirish**

Turli rivojlantirish sohalarini bir-biri bilan bog'lagan holda tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda bilimlarni yaxlit holda qabul qilish imkonini beradi. Masalan, matematika, nutq rivoji, tasviriy faoliyat va tabiat bilan tanishtirishni birlashtirgan faoliyatlar bolaning tafakkurini kengaytiradi hamda o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Integratsiyalashgan yondashuv bolalarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirishda samarali hisoblanadi.

#### **Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligini mustahkamlash**

Bolaning rivojlanishida oilaning o'рни beqiyosdir. Shu sababli ota-onalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga faol jalb qilish, ular uchun pedagogik maslahatlar, mahorat darslari va suhbatlar tashkil etish zarur. Tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi orqali bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanishidagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish imkoniyati kengayadi.

#### **STEAM va AKT texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish**

Zamonaviy texnologiyalar bolalarda ilmiy tafakkur, texnik ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan faoliyatlar bolalarning tajriba qilish, kuzatish, qurish-yasash va mustaqil xulosa chiqarish malakalarini rivojlantiradi. Shuningdek, AKT vositalaridan oqilona foydalanish ta'lim jarayonining qiziqarli va samarali tashkil etilishiga yordam beradi.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish kompetensiyasini rivojlantirish uzluksiz, tizimli va maqsadli pedagogik faoliyatni talab etadi. Mazkur jarayonda ta'limning innovatsion shakl va metodlaridan foydalanish, rivojlantiruvchi muhit yaratish hamda oila bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali bolalarning intellektual salohiyatini yanada rivojlantirish mumkin bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. – Toshkent, 2022.
2. Vigotskiy, L. S. Bola psixologiyasi va rivojlanish nazariyasi. – Moskva: Pedagogika, 1984.
3. Piaget, J. The Psychology of the Child. – New York, 1969.
4. Qodirova, F. R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
5. Hasanboyeva, O. U. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2020.
6. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
7. Montessori, M. Bolaning ijodiy rivojlanishi haqidagi pedagogik qarashlar. – Toshkent, 2018.
8. Ishmuhamedov, R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.